


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

*70910101- Stomatologiya  
magistratura mutaxassisligining*

*MALAKA TALABI*

Toshkent-2024



**ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:**

Toshkent davlat stomatologiya instituti

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_ - sonli buyrug'i bilan.

**JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabalarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

<b>T/r</b>		<b>bet</b>
<b>1.</b>	<b>Umumiy tavsifi .....</b>	<b>4</b>
1.1	Qo‘llanish sohasi .....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanilishi .....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari .....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarning tavsifi .....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatlarining sohalari .....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining ob‘yektlari .....	5
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari .....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalar .....	5
<b>2.</b>	<b>Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar .....</b>	<b>7</b>
<b>3.</b>	<b>Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar .....</b>	<b>8</b>
<b>4.</b>	<b>Fanlar katalogining tuzilishi .....</b>	<b>9</b>
	<b>Bibliografik ma’lumotlar .....</b>	<b>12</b>
	<b>Kelishuv varag‘i .....</b>	<b>13</b>

## **1. Umumiy tavsifi**

70910101 - Stomatologiya mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta'limda magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.**

70910101 - Stomatologiya mutaxassisligi bo'yicha malaka talabi magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

Mazkur mutaxassislik bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

mutaxassislikning o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### **1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

#### **1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.**

Barcha ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, turli mulkchilik shaklidagi korxonalar, nodavlat va notijorat tashkilotlari, markaziy va mahalliy davlat boshqaruv organlari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida iqtisodiy faoliyatni tashkil etish va takomillashtirish bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi. Sog'liqni saqlash tizimining davolash va profilaktika tashkilotlarida (uchastka, tuman, markaziy tuman, shahar, markaziy shahar, viloyat, respublika shifoxonalari qabul bo'limlari va ixtisoslik bo'limlarida, qishloq vrachlik punktlari, shahar vrachlik punktlari, oilaviy poliklinika, stomatologiya poliklinikalarida, ko'p tarmoqli markaziy shahar polikliniklari, tez va shoshilinch tibbiy yordam stansiyalari, onalik va bolalikni himoya qilish tashkilotlari, sanator-kurort tashkilotlari) tashxislash va davolashning zamonaviy

usullaridan keng foydalangan holda bemorlarning tibbiy muammolari bo'yicha takomillashtirish bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.**

dasturlar, standartlar, ilmiy maqolalar, tezislar, ilmiy-tadqiqot ishlari, me'yoriy hujjatlar, ma'lumotnomalar, hisobotlar;

tibbiyot asbob-uskunalari, dori vositalari, muolajalar, resurslar, vositalar, usul va uslublar majmuasi;

jamiyat, aholi, oila, bemorlar, tibbiy yordamga muhtoj qariyalar, kattalar va bolalar, ayollar va erkaklar;

sog'liqni saqlash tizimidagi davolash va profilaktika bo'yicha davlat va xususiy muassasalar, viloyat, shahar, tuman davolash-profilaktika muassasalari rahbarlari va mas'ul shaxslar;

ilmiy-tadqiqot va ilmiy-ishlab chiqarish muassasalari va tashkilotlari, tibbiy yordam xizmatlariga ega bo'lgan xususiylik istalgan shaklda bo'lgan ishlab chiqarish birlashmalarida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar.

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- davolash va profilaktika faoliyati
- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasalarida ilmiy-pedagogik hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat (o'rnatilgan tartibda);
- konsalting xizmati faoliyati
- axborot-tahliliy faoliyat;

### **1.2.4. Kasbiy vazifalari.**

70910101 - Stomatologiya magistratura ta'lim yo'nalishi bo'yicha magistratura bitiruvchilari magistr akademik darajasini olgandan so'ng oliy ta'lim muassasalari hamda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ITIlarda katta ilmiy xodim-izlanuvchi va mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy-tadqiqot ishlarini davom ettirishi mumkin. Shuningdek, o'rnatilgan tartibda mustaqil tadqiqotchilik asosida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishi mumkin.

### **Ilmiy-tadqiqot va pedagogik faoliyatida:**

Ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;

mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv-metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;

pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

#### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

ilmiy-tadqiqotlarni o'tkazish va yangi ilmiy hamda amaliy natijalarni olish;  
yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosini, davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi; ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish;

yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtira olishi, takomillashtirishi va o'z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila bilish;

o'zining individual bilimlariga tayangani holda ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni tushunishi va ularni tahlil qilish;

#### **Davolash va profilaktik faoliyatida:**

aholi o'rtasida stomatologik kasalliklarni o'z vaqtida aniqlash va zamonaviy usullardan foydalangan holda davolash qobiliyatiga ega bo'lishi;

stomatologik kasalliklarda tez tibbiy yordam ko'rsatish uchun zarur bo'lgan to'la hajmdagi ko'nikmaga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassis sifatida mustaqil amaliy faoliyat ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lishi;

stomatologik kasalliklarning tarqalishini olidini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

#### **Tashkiliy - boshkaruv hamda ishlab chiqarish faoliyatida:**

sog'liqni saqlash tizimida tibbiy jamoalarni boshqarishni ilmiy va amaliy asosda tashkil qila bilishi;

axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallagan bo'lishi;

uzluksiz ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazilishiga ko'maklashish (o'quv personal), tadqiqotlarda ishtirok etish, ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish va tahlil etish, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar hamda oliy ta'lim muassasalarida o'quv mashg'ulotlarini o'tish, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni egallash va tadbiq etish bo'yicha guruhlarini boshqarish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

#### **Konsalting xizmati faoliyatida:**

stomatologiya sohasida mavjud holatning tahliliy sharhini ishlab chiqish;

stomatologiya sohasida mutaxassislikka mos bo'lgan mavzulardagi loyihalarni ekspertiza qilish bo'yicha ekspert guruhlarida rais (ishtirokchi) sifatida qatnashish;

mutaxassislikka mos mavzular bo'yicha konsalting xizmatlarini ko'rsatish.

**Axborot-tahliliy faoliyatida:**

axborotlarni yig'ish va ularni qayta ishlash;  
stomatologiya soxasida o'zgarishlar ularning ta'sirini sifat va miqdor jihatdan tahlil qilish, oqibatlarini baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;  
o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilish, ulardan ilmiy faoliyatda foydalana olish;

stomatologiya soxasida masalalar yuzasidan ijtimoiy fikrni shakllantirish hamda milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari nuqtai nazarini O'rganish borasida tahliliy ishlar olib borish;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

**2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosi, iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyati undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

o'z faoliyatida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

raqamli iqtisodiyot texnologiyalaridan foydalana olish, axborotlashgan jamiyat sharoitida raqamli iqtisodiyotning mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarini anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;

ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash;

ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;

tashkilot, korxonalar va ularning alohida bo'linmalari tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;

tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda ishlab chiqarish va mehnat resurslaridan samarali foydalanishda iqtisodiy tamoyillarni qo'llay bilish;

bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqarish va tatbiq etish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash, tarmoqlar va sohalar bo'yicha moliyaviy va statistik hisobotlarni tuzish hamda ularni sharhlash;

tarmoqlar va sohalar bo'yicha iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, ularga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash bo'yicha tadqiqotlar o'tkazishni va tahliliy ishlarni bajarish;

tarmoqlar va sohalar bo'yicha moliyaviy, iqtisodiy, strategik rejalarni ishlab chiqarish, iqtisodiy sohada yechilayotgan ilmiy muammolarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqarish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishni bilish;

loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash;

iqtisodiy vaziyatlarga tahdid soluvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish malakasiga ega bo'lish;

me'yoriy-huquqiy hujjatlarni iqtisodiy ekspertizadan o'tqazish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

### **3. Ilmiy faoliyatga qo'yiladigan talablar.**

**Ilmiy faoliyat** ilmiy tadqiqotlar metodologiyasi o'zlashtirilishini, talabalar tomonidan ixtisoslashgan ilmiy va ta'lim muassasalarida atrof-muhit muhofazasi sohasidagi ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar bajarilishini nazarda tutishi lozim.

*Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilishga bo'lgan talablar:*

mustaqil tadqiqotchilik faolyatining amaliy ko'nikmalarini hosil qilishi;

axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalaridan foydalanib ilmiy-tadqiqotlar o'tkazish, tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish va aks ettirish, ilmiy maqolalar tayyorlashga doir bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirish;

talabalarga soha bo'yicha fan, texnika va texnologiyaning eng yangi yutuqlariga asoslangan axborot bazalarini qo'llay bilish, ulardan magistrlik dissertatsiyasini bajarishda foydalanish ko'nikmasini singdirishi lozim.

*Ilmiy pedagogik ishlar:*

zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o'quv-tarbiya ishlarining interaktiv usullaridan foydalangan holda pedagogik faoliyat mahorati va ko'nikmalarini shakllantirish;

o'quv jarayonini ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlashni tashkil etish uquvi va ko'nikmalarini hosil qilishi lozim.

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1G'7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### **Tayanch so'zlar:**

Dalillarga asoslangan tibbiyot, tadqiqot usullari, analitik tadqiqotlar, kogort, hodisa – nazorat, randomizatsiya, nisbiy xavf, shanslar nisbati, sifat, sifatni oshirish tamoyillari, kontseptsiyalari, menejment, menedjer, boshqaruv, etakchilik, tashkilot, motivatsiya, normal anatomiya, patologik anatomiya, operativ xirurgiya, topografiya, metaplaziya, autopsiya, gistologiya, fizik tekshiruv usullari, kompyuter tomografiya, ultratovush tekshiruv usullari.

70910101- Stomatologiya: bolalar xirurgik stomatologiyasi, bolalar terapevtik stomatologiyasi, ortodontiya, terapevtik stomatologiya, ortopedik stomatologiya, xirurgik stomatologiya karies, parodontit, tish, yuqori va pastki jag', chakka-pastki jag' bo'g'imi, birlamchi va ikkilamchi adentiya, to'liq va qisman adentiya, implantatdan keyingi protezlash, tish toj qismi nokarioz kasalliklari, qoplamalar, vinir va lyumenirlar, plastmass olib qo'yiluvchi protezlar, vallplast va termoplast protezlar, metalkeramik, plastmass, quyma, shtamplangan, kavsharlangan, tsink oksidli olib qo'yilmaydigan qoplamalar, ChPJB, so'lak bezlari, orttirilgan nuqsonlar, tashxislash, davolash, standart, dispanserizatsiya va boshqalar.

*Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish)*

Magistrlar tayyorlashda ilmiy amaliyot 4-semestrda o‘tkaziladi. Bunda soha bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirish; fan, soha hamda boshqa tarmoqlardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishtirish; sohaga tegishli amaliy, kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirish; kasbga samarali moslashuv imkoniyatlarini ta’minlashi lozim. Bunda tajriba ilmiy amaliyotga yuborilgan magistratura talabasi o‘quv jarayoni jadvalini individual grafik asosida bajarilishi ko‘zda tutiladi.

Ishlab chiqaruvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Toshkent davlat stomatologiya instituti  
Rektor N.K.Haydarov  
2024-yil “  
M.O‘.

KELISHILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
huzuridagi Oliy ta’limni  
rivojlantirish tadqiqotlari markazi  
Direktor M.Boltabayev

2024-yil “  
M.O‘

Toshkent tibbiyot akademiyasi,  
“Sog‘liqni saqlash” ta’lim sohasi  
bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi soha  
Kengashi raisi,

Rektor Sh.A.Boymuradov  
2024-yil “  
M.O‘

O‘zbekiston Respublikasi  
Sog‘liqni saqlash vazirligi  
Fan-ta’lim va innovatsiyalar boshqarmasi  
Boshlig‘ O‘.S.Ismailov

2024-yil “  
M.O‘

Toshkent shahar sog‘liqni saqlash  
bosh boshqarmasi

Boshlig‘ A.V.Alimov  
2024-yil “  
M.O‘

O‘zbekiston Respublikasi  
Stomatologlar assotsiatsiyasi

Rais A.I. Xasanov  
2024-yil “  
M.O‘.